

Malayziyada aviakompaniyaning taqdimoti bo'lib o'tdi

2025 26 Fevral

Uzbekistan Airways vakillari O'zbekiston Respublikasining Kuala-Lumpurdag'i elchixonasi bilan hamkorlikda Malayziyaning 40 nafar sayyoqlik kompaniyasi vakillariga mo'ljallangan taqdimot marosimini o'tkazdi.



Tadbir davomida ishtirokchilarga O'zbekistonning sayyohlik imkoniyatlari, respublika shaharlarini ziyorat qilish imkonini beruvchi "Umra+" dasturi, shuningdek, aviakompaniya faoliyati to'g'risida batafsil ma'lumotlar taqdim etildi.





